



DAVLAT SEKTORI SUB'EKLARIDA DAROMADLARNI TAN OLISH VA ULARNI HISOBINI YURITISHNING XORIJ TAJRIBALARI.

Igamberdiyev Sahobiddin Xatam o`g`li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail:sahobiddinigamberdiyev0101@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-3285-6546

FOREIGN EXPERIENCES IN THE RECOGNITION OF INCOME IN THE SUBJECTS OF THE PUBLIC SECTOR AND THEIR ACCOUNTING.

Igamberdiyev Sahobiddin Xatam o`g`li

Independent researcher of Tashkent State University of Economics

E-mail:sahobiddinigamberdiyev0101@mail.ru

ORCID ID: 0009-0001-3285-6546

JELClassification: H27 M48

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro tajribalar misolida davlat sektori sub'ektlarida daromadlarni tan olish va ular hisobini yuritishning tamoyillari tahlil qilinadi. Davlat sektori sub'ektlarida daromadlarni tan olish va ularni hisobga olishning aniq va shaffof tizimi iqtisodiy barqarorlik va samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Juhon miqyosida olib borilayotgan hisob yuritish tajribasiga ko`ra, turli davlatlar davlat moliyasini boshqarish va hisobga olishda o`ziga xos yondashuvlarga tayanib ish olib boradi. Tadqiqot davomida daromadlar hisobini olib borishda xalqaro standartlarini joriy bo'yicha chora-tadbirlar, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg`or tajribalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Abstract: This article analyzes the principles of recognition of income in public sector entities and their accounting using the example of international experiments. In the subjects of the public sector, a clear and transparent system of recognition of income and their accounting is important in ensuring

economic stability and efficiency. According to the experience of accounting conducted on a global scale, various countries work on the management and accounting of Public Finance, relying on specific approaches. During the study, measures for the introduction of international standards in the conduct of income accounting were analyzed, as well as the possibility of applying the advanced experience of foreign countries in the conditions of Uzbekistan.

Kalit so'zlar: budget mablag`lari, budjetdan tashqari mablag`lar, daromadlarni tan olish, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar.

Keywords: budget funds, extra-budgetary funds, income accounting, financial statements, international standards.

Kirish. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash maqsadida qator strategiyalar belgilangan bo`lib, iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini

ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish yo`lida qator ishlar amalga oshirilmoqda [1]. Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo`lini belgilashda moliya tizimining qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor qaratilishi tabiiy hol albatta. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayorgan davlat sektori sub`ektlari daromadlarini tan olish va ularni hisobga olishning samarali tashkil etishda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o`rganib amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Davlat sektori sub'ektlarida daromadlarni tan olish va hisobga olishning aniq va shaffof tizimi iqtisodiy barqarorlik va samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Juhon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turli davlatlar davlat moliyasini boshqarish va hisobga olishda o'ziga xos yondashuvlarga ega. Shu jihatdan xalqaro tajribalar misolda davlat sektori sub'ektlarida daromadlarni tan olish va hisobga olish tamoyillari o`rganish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayorgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budget tashkilotlari daromadlari ijrosining huquqiy asoslari mustahkam tizimga ega bo'lib, ular tashkilot iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Budget kodeksi va unga mos ravishda ishlab chiqilgan boshqa qonunchilik hujjatlari tashkilot daromadlarini qonuniy va samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan huquqiy kafolatlarni yaratadi [2]. Xalqaro miqyosda tan olingan ta`rifiga ko'ra, davlat sektori hukumat tomonidan nazorat qilinadigan umumiy davlat budgeti hisobidan moliyalashtiriluvchi barcha institutsional birliklardan iborat. Ma'lumki xorijiy mamlakatlarda davlat sektori sub`ektlarida budgetdan tashqari fondlar alohida o'rinn tutadi. Ularda jamlanadigan

mablag'lar hajmi yuqori bo'lib, masalan, Fransiyada maxsus fondlarning miqdori jihatidan mamlakatning davlat budgeti mablag`lari miqdoriga yaqin. Horijiy mamlakatlarga davlar sektori daromadining eng muhim va yetakchi qismini turli jamg`armalar tashkil etadi.

Material va metod. Budget tashkilotlarining daromadlarini hisobga olishga so'nggi yillarda katta e'tibor qaratilmoqda, to`g`ri prognoz qilingan daromadlar tashkilotning kelgusidagi moliyaviy barqarorligining o'sishiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Richard A. Musgrave tomonidan tashkil etilgan davlat moliyasini boshqarishning asosiy nazariyalarida, davlat sektorida xarajatlar va resurslarni samarali taqsimlash, barqarorlashtirish va maqsadli sarflash muhimligini ta'kidlagan[3].

Lapsley va Pallot tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AQSh, Buyuk Britaniya va Evropa Ittifoqiga a'zo bir qator rivojlangan davlatlar iqtisodiyotlarida ichki nazorat va audit jarayonlari yaxshi yo`lga qo'yilgan bo'lsa-da, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti ham muhim moliyaviy inqirozlar bilan kurashmoqda[4].

Respublikamiz iqtisodchi olimlardan A.A.Ostonokulov "Budget tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag`larni shakllantirish, ularning hisobini tashkil etish va yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish metodologik asoslari hamda ularn takomillashtirish" yuzasidan izlanishlar olib borib, ushbu izlanishlarda davlat sektori sub`ektlaridan bo`lgan oliy ta`lim muassasalari tadqiqot ob`yekti sifatida o`rganilgan. Oliy ta`lim muassasalari daromadlari tarkibidagi budgetdan tashqari mablag`larning shakllanish xususiyatlari va sarflanish yo`nalishlari tahlil

qilinib, budjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha daromadlar va xarajatlarni tan olish hamda hisobga olish, budjetdan tashqari mablag`lar harakatiga oid axborotlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari tadqiq qilingan [5].

Natijalar. Ushbu tadqiqot xorijiy davlatlarda davlat sektori daromadlarini hisobga olish bilan bog`liq muammolarni tahlil qilish jarayonida induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan hamda, daromadlardan foydalanish samarodligini tahlil qilishda rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Davlat sektori tashkilotlari buxgalteriya hisobidagi so`nggi yutuqlardan biri bu Xalqaro davlat sektori Buxgalteriya Standartlari IPSAS mamlakatlar bo`ylab buxgalteriya hisobining uyg`unlashтирilган тизимлари жориёт етишгидир. О`zbekiston Respublikasi hududida MHXS hujjatlarini joriy etish to`g`risidagi qaror Moliya vazirligi tomonidan ekspertiza komissiyasining xulosasi asosida qabul qilinadi [6]. Xalqaro Davlat sektori buxgalteriya standartlari IPSAS - turli manbalardan, shu jumladan davlat grantlari va birjadan tashqari operatsiyalardan olinadigan daromadlarni tan olish va hisobini yuritishga qaratilgan davlat sektori uchun maxsus ishlab chiqilgan standartlarni taqdim etadi. Standartlar shakllantirilayotgan moliyaviy hisobotlarda shaffoflik zarurligini ta'kidlab, davlat sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini samarali baholashga imkon beradi.

Davlat sektori daromadlarini hisobga olishda Xalqaro davlat sektorining hisob standartlari IPSAS – International Public Sector Accounting Standards keng qo`llaniladi. IPSASni qo`llash davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga qaratilgan bo`lishiga

qaramay ayrim xorijiy mamlakatlar o`z hisob yuritish tizimiga moslashtirib olgan. Xususan, AQSh va Buyuk Britaniya, kassa usulidan foydalanadi, ya`ni daromadlar faqat pul tushganida tan olinadi. G`arbiy Yevropa va Skandinaviya mamlakatlarida esa hisob usuli qo`llanilib, daromad va xarajatlar moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelgan paytda hisobga olinadi. Kanadada davlat sektorining moliyaviy hisobotlari keng jamoatchilik uchun ochiq bo`lib, daromadlar va xarajatlar to`g`risidagi ma'lumotlar muntazam e'lon qilinadi. Avstraliya va Yangi Zelandiya davlat moliyasini boshqarishda elektron axborot tizimlaridan keng foydalanib, real vaqt rejimida nazoratni amalga oshiradi. Germaniya va Shvetsiyada davlat sektoridagi moliyaviy operatsiyalar mustaqil auditorlar tomonidan tekshiriladi. Janubiy Koreya va Yaponiya davlat organlarining daromadlari va xarajatlari qat`iy nazorat qilinib, korrupsiya xavfini kamaytirish bo`yicha samarali choralar qo`llaniladi.

Gretsiyadagi davlat sektori sub'ektlari buxgalteriya amaliyotida xalqaro standartlari IPSAS qabul qilinishi bilan bog`liq muhim islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu standartlarga o`tish orqali moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, hisobdorligi va taqqoslanishini oshirishga hamda Gretsiyani boshqa Evropa mamlakatlari hisob yuritish tizimiga yanada yaqinlashtirishga qaratilgan. Gretsiya 2000-yillarning boshlarida moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yo'l xaritasiga asosan IPSASni qabul qila boshladi. IPSASlar asosida umumiyl buxgalteriya hisobi tizimiga to`liq o`tish Davlat budjeti uchun 1 yanvar 2019 yilgacha davlat sektori tashkilotlari uchun 1 yanvar 2023 yilgacha belgilangan. Bunda kassa usulidan hisob usuliga o`tishda sezilarli siljish amalga oshirildi. Ushbu o`zgarish moliyaviy



ko'rsatkichlarni aniqroq aks ettirishga imkon beradi, daromadlar va xarajatlarni naqd pul kelib tushganda yoki chiqib ketganda emas, balki ular sodir bo'lganda tan oladi. Ushbu o'tish moliyaviy hisobot sifatini oshiradi va umumiy shaffoflikni yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu yutuqlarga qaramay, Gretsya ichki nazoratni kuchaytirish, salohiyatni oshirish va daromadlarni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan muammolar ham mavjud. Mamlakat hali ham IPSASga to'liq muvofiqligi to'g'risida boshlang'ich bosqichda deb hisoblanadi.

Ko'pgina Evropa mamlakatlari IPSAS yoki shunga o'xshash standartlarni o`z hisob-kitob buxgalteriya tizimlarida qabul qilganlar. Biroq, qabul qilish darajasi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan farqlar mavjud. Shvetsiya va Norvegiya kabi davlatlar buxgalteriya hisobi tamoyillarini qabul qilishda birinchi o'rinda bo'lib, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga olib keldi. Evropada tuzib taqdim etilgan hisobotlarni oshkor qilish talablarida sezilarli farq bor. Ba`zi mamlakatlar moliyaviy bo`lmagan ma'lumotlarni hisobot doirasiga kiritgan bo'lsa, boshqalari asosan moliyaviy ma'lumotlarga e'tibor berishadi. Ushbu nomuvofiqlik turli mamlakatlarda davlat sektori moliyaviy hisobotlarining taqqoslanishiga ta'sir qilishi mumkin.

Gretsiyaning davlat sektoridagi buxgalteriya amaliyoti Evropa standartlariga koproq mos kelishga qaratilgan IPSASlarni qabul qilish orqali rivojlanmoqda. Ayniqsa, buxgalteriya hisobiga o'tishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ushbu islohotlarni to'liq amalga oshirishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muammolar ham bor. Nisbatan, boshqa Evropa davlatlari qabul qilish va amalga oshirishning turli darajadagi muvaffaqiyatlarini namoyish etib, Gretsiyaning eng yaxshi amaliyotlardan va

davlat sektorining moliyaviy boshqaruvinu takomillashtirish uchun o'ziga xos jihatlarini olib o`rganish maqsadga muvofiq.

Gretsya, Buyuk Britaniya va Germaniyadagi davlat sektorida buxgalteriya tizimini yuritish amaliyoti o'zlarining huquqiy asoslari va iqtisodiy taraqqiyot rivojlanish darajasida o'ziga xos xususiyatlarni namoyish etadi. Gretsya, Frantsiya va Germaniya kabi kontinental Evropa mamlakatlariga o'xshash Kodeks huquq tizimiga amal qiladi. Ushbu huquqiy asos davlat sektorida buxgalteriya hisobi standartlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Gretsiyada hisob yuritish tizimida buxgalteriyani standartlar asosida olib borishdan ko`ra soliq qonunchiligiga rioya etilishiga katta ahamiyat qaratiladi. Moliyaviy hisobotlar ko'pincha moliyaviy standartlardan ko`ra soliq qonunchiligiga rioya qilishni birinchi o'ringa turadi [7].

Buyuk Britaniyada davlat sektorida buxgalteriya tizimini yuritish umumiyligini qonun kodeks tamoyillariga amal qilgan holda olib boriladi. Bu kodeks qonunlariga ega bo`lgan mamlakatlarga nisbatan buxgalteriya amaliyotida ko'proq uyg`unlikni ta'minlaydi. 2005 yildan beri Buyuk Britaniyada ro'yxatga olingan barcha tashkilotlar uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini IFRS to'liq amalga oshirilib kelmoqda. Buyuk Britaniyaning buxgalteriya amaliyoti shaffoflik va investorlarni himoya qilish uchun batafsil oshkor qilish talablarini birinchi o'ringa qo'yadi.

Gretsiyada bo`lgani kabi, Germaniyada ham buxgalteriya amaliyotini tartibga soluvchi Qonunchilik normalariga alohida e'tibor qaratilgan kodlar tizimi mavjud. Germaniyada buxgalteriya hisobi moliyaviy hisobot va soliqqa tortish tizimi o'rtasidagi uzviy bog`liqlik mavjud bo`lib, bu bevosita darmadlarni shakllantirilishiga ta'sir

ko`rsatmay qolmaydi [8]. Germaniya IFRSni faqat ro`yxatga kiritilgan guruhlarning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini shakllantirish uchun qabul qilishni talab qiladi, lekin IFRSni qabul

qilmagan tashkilotlar hisobot berish uchun Germaniyaning umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillariga HGB amal qilgan holda hisobotlarini tuzib taqdim etadi (1-jadval).

1-jadval

Evropa davlatlarining hisob yuritish tizimi¹.

Xususiyati	Gretsiya	Buyuk Britaniya	Germaniya
Huquqiy Asos	Kod qonuni (Schyorlar asosida)	Umumiy Qonun (kodeks)	Kod qonuni (Schyorlar asosida)
Soliqqa tortish	Hisob soliq qonunchiligi asosida yo`lga qo`yilgan	Soliqlarga kamroq e`tibor qaratilgan	Hisob yuritish soliqlar ta'sirida
Xalqaro standartlarni qabul qilish	Qisman qabul qilingan	To`liq qabul qilingan	Qisman qabul qilingan
Hisob yuritishning asosiy jihatlari	Daromad olishga yo`naltirilgan	Investorlar jalb qilishga yo`naltirilgan	Daromad olishga yo`naltirilgan

Gretsiya ham, Germaniya ham Buyuk Britaniyaga nisbatan soliq va moliyaviy hisobot o`rtasida mustahkam aloqalarga ega. Buyuk Britaniya barcha sohalarda IFRS kabi xalqaro standartlarga katta e'tibor qaratilgan. Gretsiya ham, Germaniya ham shunga o`xshash (Kodeks Qonuni) huquqiy asoslarga amal qilsalar ham, ular Buyuk Britaniyadan farq qilgan holda umumiy qonun qat`iy kodifikatsiyadan ko`ra har biri alohida yondashuv bo`yicha hisob ishlarini olib boradi.

Xulosa. Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qabul qilish bir qator qulayliklar keltirib chiqaradi. Bu moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ochiqligini, hisobotlarning bir-biriga bo`lgan

taqqoslashuvchanlikni yaxshiladi, bu esa o`z navbatida davlat sektori moliyaviy hisobotlariga bo`lgan ishonchni oshiradi. Standartlashtirilgan noqmativlar ko'proq ma'lumotli qarorlar qabul qilishga imkon berdi, bu esa davlat resurslarni maqsadli taqsimlash va bu bilan davlat sektori tashkilotlarini daromadlari hisobini to`g`ri yo`lga qo`yishni ta`minlashga olib keldi. Bundan tashqari, standartlarni qabul qilish xalqaro hisobotlarni taqqoslash, va mamlakatlar o`rtasida eng yaxshi tajriba almashish imkonini beradi.

Xorij tajribasi shuni ko`rsatadiki, davlat sektori sub`ektlarida daromadlarni tan olish va hisobga olish samaradorligini oshirish

¹ Olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- IPSAS standartlariga mos keluvchi hisob tizimlarini joriy etish;
- Daromadlarni hisobga olishda hisob asosli usulidan foydalanish;
- Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;
- Avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini rivojlantirish va elektron hisobot berish mexanizmlarini yanada kengaytirish.

IPSAS standartlariga mos keluvchi hisob tizimlarini joriy etish uchun avvalo davlat sektori buxgalterlari va mutaxassislarining bilim va ko'nikmalari va salohiyatni oshirishga alohida etibor qaratish zarur. Trening dasturlar, malaka oshirish tashabbuslari va buxgalteriya organlari bilan hamkorlik xalqaro buxgalteriya standartlarini samarali qo'llashga qodir malakali mutaxassislarni yaratishga yordam beradi. Muntazam fikr almashinuvlar, konferentsiyalar va seminarlar buy o`ldagi qator imkoniyatlarni taqdim etadi.

Mamlakatlar bir-birlarining tajribalarini o'rganishlari va muvaffaqiyatli amalga oshirish strategiyalari haqida tushuncha olishlari mumkin bo`ladi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar ham buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qabul qilish va amalga oshirishda ko'rsatma va yordam berishi mumkin.

Shuningdek, milliy me`yoriy-huquqiy bazani buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga moslashtirish ham juda muhimdir. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu standartlardagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun o'z qoidalarini muntazam ravishda ko'rib chiqishlari va yangilashlari kerak. Davlat sektorida daromadlarni tan olish IPSAS va IFRS xalqaro buxgalteriya standartlari ortasida turlicha amalga oshirilib kelinmoqda. Davlat sektorida IPSAS standartlari asosida daromadlarni tan olish davlat moliyaviy hisobotlarda shaffoflik va hisobdorlikni oshirish hamda investitsion jozibadorlikni oshiradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ««O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-soni
2. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 26-dekabr 2013-yil.O'RQ-360-soni.
3. Richard A. Musgrave « Devolution, Grants, and Fiscal Competition » Journal of Economic Perspectives — Volume 11, Number 4 - Fall 1997 - Pages 65–72
4. Lapsli, I. va Pallot, J. (2019). Ichki nazorat va Budjet tashkilotlari fondlarini boshqarish: moliyaviy javobgarlikni kuchaytirish. Davlat, pul va boshqarish, 39 (5), 341-348. doi:10.1080/09540962.2019.1612342
5. A.A. Ostonokulov. «Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish». Monografiya. – T.: “VNESHINVESTPROM”, 2021. - 208 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori, 24.08.2020 yildagi 507-soni



7. Stylianou Tasos, Athianos Stergios and Konstantoudis Kleanthis The greek accounting system and its classification: a brief review. International Journal of Development Research Vol. 08, Issue, 08, pp. 22269-22274, August, 2018
8. Tsianaka, E. and Stavropoulos, A. (2023) International Accounting Standards in the Public Sector: A Comparative Study of Greece and European Countries. Theoretical Economics Letters, 13, 808-843.